

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huqida

УДК UDK: 330.352.2(575.1)

ASKAROVA MAVLUDA TURABOVNA

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INKLYUZIV O'SISHNI TA'MINLASH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.02 - Makroiqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Toshkent - 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I- IQTISODIYOTDA INKLYUZIV O‘SISHNI	
BOB. TA‘MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	16
1.1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga institutsional yondashuv va iqtisodiyotda inklyuziv o‘shish nazariyasi.....	16
1.2. Iqtisodiy rivojlanish modellarida inklyuzivlikni ta‘minlash usullaridan samarali foydalanish.....	24
1.3. O‘zbekiston iqtisodiyotida inklyuziv o‘shishning ahamiyati va zaruriyati.....	30
1.4. Inklyuziv o‘shishni qo‘llab-quvvatlashning xorij tajribasi.....	34
I-bob bo‘yicha xulosa.....	42
II- O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA	
BOB. INKLYUZIV O‘SISH HOLATI.....	44
2.1. Iqtisodiyotda inklyuziv rivojlanishni amalga oshirish texnologiyasi.....	44
2.2. O‘zbekiston iqtisodiyotning asosiy ko‘rsatkichlari tahlili: iqtisodiy o‘shish, daromadlarni taqsimlash, bandlik.....	47
2.3. Kam ta‘minlangan aholi qatlamlari uchun iqtisodiy imkoniyatlar tahlili.....	65
2.4. Moliyaviy inklyuzivlik va tadbirkorlikni rivojlantirishni amaldagi holati tahlili.....	78
II-bob bo‘yicha xulosa.....	85
III- O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INKLYUZIV O‘SISHNI	
BOB. BAHOLASHNING HOZIRGI ZAMON AMALIYOTI.....	87
3.1. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun inklyuziv o‘shish modeli natijalarini baholash indikatorlari.....	87
3.2. O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida inklyuziv o‘shishni baholash usullari	111
3.3. Inklyuziv o‘shishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini aniqlash uslubiyoti.....	115
3.4. Mamlakat inklyuziv o‘shishini baholashda davlat dasturlarining faoliyati hamda bajarilgan davlat siyosati vazifalaring ijrosini nazorat qilish tizimi.....	118
III-bob bo‘yicha xulosa.....	123

IV- O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INKLYUZIV O‘SISH	
BOB. METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	
YO‘NALISHLARI.....	124
4.1. O‘zbekiston iqtisodiyotida inklyuziv o‘shish modelini takomillashtirish strategiyasi.....	124
4.2. Inklyuziv o‘shish indikatorlarini ishlab chiqish va baholash metodologiyasini takomillashtirish.....	137
4.3. Moliyaviy inklyuzivlikni oshirish: omillari, imkoniyatlari va istiqbollari.....	148
4.4. Inklyuziv o‘shishni ta’minlovchi innovatsion iqtisodiy mexanizmlardan samarali foydalanish yo‘nalishlari.....	165
IV-bob bo‘yicha xulosa.....	165
Xulosa.....	172
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati.....	177
Ilovalar.....	182

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarning bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarida sodir bo'layotgan miqdoriy va sifat o'zgarishlarining o'zaro uyg'unligi taraqqiyotning asosiy jihatlaridan biri sifatida e'tiborga olinmoqda. Iqtisodiyot rivojlanishining sifat jihatdan taraqqiy etishi uning inklyuziv o'sishiga erishishidagi muhim omillardan biri hisoblanmoqda. "Iqtisodiyotning inklyuziv o'sishini ta'minlash mamlakat aholisining har jihatdan farovonligini o'zida ifodalab, bunda inson kapitalini rivojlantirish asosiy omillardan birini namoyon etmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, inson kapitalining bir foizga o'sishi iqtisodiy o'sish sur'atini 0,4 foizga oshiradi"¹. Shuningdek, inklyuziv o'sish dunyo davlatlarida kambag'allikni qisqartirish borasida asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida inklyuziv o'sishni ta'minlash, inklyuziv o'sish usullarini takomillashtirish, "inklyuziv rivojlanish" borasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish, daromadlarning teng taqsimlanishi hamda inklyuziv o'sishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Inklyuziv o'sishni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy tendensiyalarni aniqlash, kambag'allik darajasini kamaytirish bo'yicha innovatsion yondashuv va nostandart usullarni tatbiq etish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, investitsiyalar va innovatsiyalarni jalb qilish, aholi farovonligini oshirish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish va biznes faoliyatini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish jarayonida iqtisodiy ishtirokchilarga teng imkoniyatlar yaratish, jamiyatning har bir qatlamiga imtiyozlar taqdim etish, inklyuziv o'sish omillarining iqtisodiyotga bevosita ta'sirini baholash, aholi daromadlarining nomutanosib taqsimlanishini inklyuziv rivojlanish nuqtayi nazaridan o'rganish va mamlakatda inklyuziv taraqqiyotni ta'minlashda "yashil

¹ <https://djvu.online/file/UCacGyBwcp103>

iqtisodiyot” imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda “inson qadrini ulug‘lash” tamoyili asosida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu jarayonda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM ulushini oshirish hamda inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalarning samaradorligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi kambag‘allikni kamaytirish va aholining turmush darajasini oshirish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘sinh uchun mustahkam poydevor yaratish, strategik maqsadlarga erishishda barcha uchun teng iqtisodiy imkoniyatlarni ta‘minlashdan iborat. Ushbu vazifalarni amalga oshirish doirasida inklyuziv iqtisodiy o‘sinh yo‘nalishlarini ishlab chiqish, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish hamda inklyuziv taraqqiyotga oid aniq maqsadli ko‘rsatkichlarni shakllantirish eng dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sinh uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”, 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-son “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-son “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”², 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion

² PF-158-coH 11.09.2023. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida